



MUSTAQILLIK YILLARIDA TA`LIM TIZIMIDA XOTIN-QIZLARGA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR VA SHU SOHADA ERISHILGAN YUTUQLAR

Mirsalimova Dilobar Davlataliyevna

Oriental universiteti tarix yo`nalishi

1-kurs magistranti

97 7208825

mirsalimovadilobar@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Mustaqillik yillarida oliy ta`lim tizimida xotin-qizlarga berilgan imkoniyatlar va bu imkoniyatlar asosida erishilgan yutuqlar. Jamiyat hayotida xotin-qizlarning o`rni. O`zbekiston hukumati tomonidan gender tenglik bo`yicha olib borilayotgan ishlarning ijobiy, samarali tomonlari.

Kalit so`zlar: gender, ijtimoiy lift, institutsional, monomarkaz, doktorontura

Kirish. Mustaqillik yillarida vatanimiz taraqqiyotida, oila va jamiyat hayotida xotin-qizlar muhim o`rin va mavqega egadir. Mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini tashkil etadigan xotin-qizlar ijtimoiy-ma`naviy, ta`lim, siyosiy-iqtisodiy, davlat boshqaruvi va boshqa sohalarda samarali mehnat qilmoqda. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ta`lim olish imkoniyatlari, ijtimoiy-siyosiy faolliklarini oshirish, huquq va qonuniy manfaatlariga so`ssiz rioya qilishni ta`minlash, ularni turli soha va tarmoqlarda o`z qobiliyat va imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratish yuzasidan keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, xotin-qizlarning oliy ta`lim muassasalarida tahsil olishlari uchun yanada keng imkoniyatlar va imtiyozlar yaratib berilmoqda. Zulfiya nomidagi davlat mukofotida endilikda yosh tizimini uzaytirilgani ta`lim, fan, adabiyot, madaniyat, san`at, sport sohalarida yutuqlarga erishgan hamda ilmiy izlanishlar bilan shug`ullanayotgan olim qizlarimiz uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda [1].

Mavzuning dolzarbligi. Xotin-qizlarning yaxshi ta`lim olishi, kasb-hunar egallashi Prezidentimizni hamisha o`ylantiradigan masalalardan biridir. Jumladan, 2022-2026-yillarga mo`ljallangan Xotin-qizlar ta`limini qo`llab-quvvatlash dasturi ishlab chiqiladi. Dastur doirasida asosan xotin-qizlarni o`qitish, ta`lim kontraktlarini to`lash uchun qizlarga ilk marotaba foizsiz kredit berish joriy qilindi. Bundan asosiy maqsad xotin-qizlarni oila va jamiyatdagi o`rni va



mavqeiini mustahkamlashga, salohiyatini to'la namoyon etishga ijtimoiy-ma'naviy muhitda o'z o'rinlariga ega bo'lishlari uchun imkoniyat eshiklarini ochib berish[3].

Maqolaning maqsadi. Mustaqillik yillarida xotin-qizlarga berilgan imtiyoz, imkoniyatlar va bu davr ichida xotin-qizlar tomonidan erishilgan yutuqlar va kamchiliklar haqida tahliliy sharh keltirish.

ASOSIY QISM

“Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug` kelajagimiz ham ayollarga bog`liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo`lishini xohlasak, avvalo ,mo`tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlarini yaratishimiz lozim. Ona rozi bo`lsa, oila rozi bo`ladi, oila rozi bo`lsa, jamiyat rozi bo`ladi”

Shavkat Mirziyoyev

Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti bir qator omillar asosida yuz beradi. Bu jarayonda ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta'minlanganligi masalasi – davlatlar rivojining hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Zotan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rnini hamisha muhim mezon bo'lib kelgan. Ta'kidlash joiz, bugungi kunda Yurtboshimiz boshchiligida Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish sari dadil qadamlar qo'ymoqdamiz. Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ayollarning baxti asosiga qurilmoqda, desak adashmagan bo'lamiz. Sir emaski, yangi Uyg'onish davri, avvalo, ilm-fanning taraqqiyotiga, milliy ma'naviyatning mustahkamligiga bog'liqdir. Mazkur o'tkir haqiqatni chuqur his qilgan holda xotin-qizlarning ta'limi va ilm-fan bilan shug'ullanishlari uchun davlatimiz tomonidan yangi imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Jamiyatda ayollarni ilm-fanga ruhlantirish maqsadida yangi mexanizm – «Olima ayollar jamiyati» tuzilgani hamda uning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yanada rag'batlantirish uchun Davlat byudjetidan 50 milliard so'm ajratilgani barcha xotin-qizlarning ko'nglida jamiyatning eng faol qatlami – «olima ayol» bo'lishga intilishlarini yanada kuchaytirishi ayni haqiqat. Hech shubhasiz, ayollarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini to'laqonli ta'minlash, ularni ijtimoiy-iqtisodiy hamda huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasidagi islohotlar yurtimizda gender tenglikni va teng huquqlilikni ta'minlashdagi ijtimoiy adolat namunasidir.

Bir so'z bilan aytganda, ayollarning taqdiri, buguni va kelajagi uchun davlat siyosati darajasidagi yuksak e'tiborning ifodasi bo'lgan bunday sharoitlar va



imtiyozlar mamlakatimiz tarixida hali bo‘lmagan. Bugun opa-singillarimiz qalbida jo‘sh urayotgan shukronalik va yurtndan, Yurtboshimizdan minnatdorlik hissi amaliy faoliyatimizga ko‘chib, har bir sohada yuksak natijalarga erishishga ruhlantirmoqda. Ayollarga e‘tibor chinakam davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi: uning huquqiy va institutsional asoslari tubdan takomillashtirildi. Mamlakatimizda gender tenglikni ta‘minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish faoliyati: ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish; ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish; aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish; huquqni qo‘llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta‘minlash uchun mas‘ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me‘yorlar asosida o‘qitish kabi asosiy yo‘nalishlardan iborat.[4]

Davlat buyurtmasi parametrlari doirasida yoshlarni oliy ta‘limga qamrab olishni kengaytirish, davlat granti asosidagi davlat buyurtmasi parametrlarini 2020–2021 o‘quv yiliga nisbatan 25 foizga oshirilgan. Jamiyatda ayollar rolini oshirish, ehtiyojmand oilalar qizlari uchun «ijtimoiy lift» tamoyili asosida xotin-qizlarni oliy ta‘lim bilan qamrab olish darajasini kengaytirish maqsadida alohida grant o‘rinlari ikki barobarga oshiriladi. OTMlarga o‘qishga qabul qilish davlat buyurtmasi parametrlarini shakllantirish bo‘yicha kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlarini «quota.idm.uz» elektron portali orqali aniqlanadi. Vazirlik va idoralar, iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyoj yuqori bo‘lgan yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlashda davlat grantini nodavlat oliy ta‘lim tashkilotlariga ham beriladi.[3]

Xotin-qizlarga ta‘lim olishlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirib borishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab, xotin-qizlar kontraktlarini to‘lash uchun 7 yilga foizsiz kredit berish belgilandi. Davlat OTMlarida magistraturada o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlari qoplab berilmoqda va bunga har yili kamida 200 milliard so‘m ajratilmoqda[5]

Yana bir yangilik: kelgusi o‘quv yilidan boshlab, magistraturada o‘qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to‘liq byudjetdan qoplab beriladi. Shuningdek, ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo‘qotgan talaba qizlarning ta‘lim kontrakti mahalliy byudjetdan tomonidan to‘lanadi. Jamiyatimizda olim ayollar ulushini sezilarli oshirish uchun doktorantura yo‘nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratiladi. Monomarkazlar va oliygohlar qoshida Malakani baholash markazlari tashkil etish, ayollarni talab yuqori bo‘lgan ishchi kasblarga o‘qitish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.[3]



Mustaqillik yillarida Oliy ta`lim tizimida xotin-qizlarga imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqda desak aslo mubolag`a bo`lmaydi.

Oliy Majlis Senati tomonidan 2030 yilga qadar O`zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlandi.

Sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi sifatida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasida xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga doir qator maqsad va vazifalar nazarda tutildi. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasining 5 ta maqsadida xotin-qizlar masalasiga oid vazifalar belgilangan. «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash» deb nomlangan 69-maqsadida, jumladan, jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Xulosa

Ta`kidlab o'tish joizki, bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar xotin-qizlarning ta`limi va ilm-fan bilan shug`ullanishlari uchun davlatimiz tomonidan yangi imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Jamiyatda ayol va qizlarni ilm-fanga ruhlantirish maqsadida "Olima ayollar jamiyati" tuzilganligi alohida berilgan e'tibordan dalolatdir

Zero hozirgi vaqtda mamlakatimiz xotin-qizlari orasida 514 nafar fan doktori, 6 nafar akademik, 15 nafar O`zbekiston Qahramoni, 17 nafar senator, 15 nafar Qonunchilik palatasi deputati borligi, shuningdek, mahalliy Kengashlar deputatlarining 23 foizidan ziyodini hamda ilm-fan, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at sohalarida mehnat qilayotganlarning 72 foizini aynan ayollar tashkil etishini alohida ta'kidlash lozim.[1]

Davlatimiz tomonidan xotin-qizlarga berilgan imkoniyatlar asosida bu raqamlar ortib borishiga aslo shubha qilmaymiz. Buyuk davlat arbobi Indira Gandi "Bitta qiz bolani o`qitsangiz, butun oilani o`qitgan bo'lasiz" degan fikr ham bejizga aytilmagan. Xulosa o`rnida xotin-qizlar yaratilayotgan imkoniyatlar zahirida kelajak avlodni tarbiyalash masalasi ham nazarda tutilgan. Kelajak avlodni tarbiyalash ko'p jihatdan onalarimiz bo`ynidagi vazifa, shunday ekan xotin-qizlar zamon ilm-fani bilan birgalikda bahramand bo'lsa bu o`z-o`zini yosh avlodni ta`lim tarbiyasi yurt ravnaqi taraqqiyotini belgilaydi. Rivojlangan mamlakatlar bunga misol bo'la oladi. Tarixga nazar solsak, Zardushtiylik dini muqaddas kitobi "Avesto" da ayollar o`rni ularning mulkdor bo'lish huquqi haqida ma'lumotlar uchraydi. Franklar davlatida hukmdor oilasida erkak zurriyot qolmasa shu xonadonga yaqin xotin-qizlar



taxtni boshqarishi qayd etilgan. Zero ilm-ma`rifatli onalardan har jihatdan yetuk avlod yetishib chiqadi. Bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning o`rni va roli har qachongidanda muhim. Shu bois islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g`oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo`llab-quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar, o'zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini ta'minlashdan iborat. Zero, inson qadrini ulug'lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo'tabar onalarimizni e'zozlash, munis opa-singillarimizni qadrlash orqali ro'yobga chiqadi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021/2022 o'quv yilida "O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari" to'g'risidagi ID-32978-sonli qarori. <https://regulation.gov.uz/uz/d/32978>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli farmoni.
3. Xalq so'zi gazetasi. 2022yil 1-mart Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022 yil 1-mart kuni xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimi hamda ularning jamiyatdagi mavqeyini yanada mustahkamlash masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi
4. Barbara Rambousek. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YeTTB) Gender masalalarini hal qilish yo'lida. "Iqtisodiy sharh" jurnali. №10/2022
5. [Образование женщин и питание детей в корреляционных связях - Review.uz](#)